

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**REPREZENTATION OF THE “WEATHER” CONCEPTOSPHERE IN ENGLISH PHRASEOLOGY****Nodirakhon Rafiqovna Ashurova**

Associate Professor of the Department of "Foreign Languages",
"University of Economics and Pedagogy"
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “weather” concept, conceptosphere, phraseology, idiomatics, linguistic worldview, English linguoculture, linguoculturology, representation.

Received: 21.09.25**Accepted:** 22.09.25**Published:** 23.09.25

Abstract: This article examines the representation of the “weather” conceptosphere in English phraseology, focusing on its semantic, cultural, and cognitive dimensions. Based on the theoretical framework of conceptosphere studies, the research analyzes a wide range of weather-related phraseological units, including those denoting natural phenomena such as wind, rain, storm, snow. Special attention is given to the cultural-cognitive foundations underlying these expressions and their role in shaping the linguistic worldview. The analysis demonstrates that the concept of wind is the most frequently verbalized in English phraseology, highlighting its symbolic significance in the interaction between language and culture. Furthermore, the study reveals how weather-related idioms reflect the values, worldview, and environmental experience of the English-speaking community. The classification of selected idioms according to semantic and quantitative criteria provides insights into evaluative and cognitive features of weather concepts within the English linguistic picture of the world. By exploring the interrelation between natural phenomena and cultural perception, the article contributes to the fields of cognitive linguistics, phraseology, and linguoculturology, offering valuable perspectives on how weather as a universal concept acquires nationally specific interpretation in English.

INGLIZ FRAZELOGIYASIDA “OB-HAVO” KONSEPTOSFERASINING REPREZENTATSIYASI

Nodiraxon Rafiqovna Ashurova

“University of economics and pedagogy”

NOTM “Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “ob-havo” konsepti, konseptosfera, frazeologiya, idiomatika, til manzarasi, ingliz lingvomadaniyati, lingvokulturologiya, reprezentatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi “ob-havo” konseptosferasining frazeologik birliklar orqali ifodalanishi lingvokulturologik va kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda konseptosfera nazariyasiga tayangan holda, shamol (wind), yomg‘ir (rain), bo‘ron (storm), qor (snow), kabi asosiy ob-havo hodisalariga oid frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va madaniy-kognitiv asoslari o‘rganiladi. Analiz natijalari ingliz frazeologiyasida ayniqsa shamol konsepti eng ko‘p frazeologik birliklar bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu holat ob-havo hodisalarining ingliz xalqining dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarida tutgan o‘rnini tasdiqlaydi. Shuningdek, ob-havo konseptosferasi orqali til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar ochib beriladi. Maqolada tanlab olingan frazeologizmlar semantik va miqdoriy mezonlarga ko‘ra tasniflanib, ularning baholovchi va kognitiv jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz milliy-madaniy tafakkurida tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib beradi hamda frazeologiya, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya sohalariga muhim ilmiy hissa qo‘shadi.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОСФЕРЫ “ПОГОДЫ” В АНГЛИЙСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Нодирахон Рафиковна Ашурова

Доцент кафедры «Иностранные языки»

Университет экономики и педагогики

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: концепт «погода», концептосфера, фразеология, идиоматика, языковая картина мира, английская лингвокультура, лингвокультурология, репрезентация.

Аннотация: В данной статье анализируется репрезентация концептосферы «погоды» в английской фразеологии с использованием лингвокультурологического и когнитивного подходов. В исследовании,

опирающемся на теорию концептосферы, рассматриваются семантические особенности и культурно-когнитивные основания фразеологических единиц, связанных с основными метеоявлениями: ветер (wind), дождь (rain), буря (storm), снег (snow). Результаты анализа показывают, что в английской фразеологии особенно широко представлена концепция ветра, что подтверждает значимость погодных явлений в мировоззрении и культурных ценностях английского народа. Кроме того, через концептосферу «погоды» раскрываются сложные взаимосвязи между языком и культурой. В статье приводится классификация отобранных фразеологизмов по семантическим и количественным критериям, выявляются их оценочные и когнитивные характеристики. Полученные результаты позволяют показать связь природы и человека в английском национально-культурном мышлении и вносят значимый научный вклад в развитие фразеологии, когнитивной лингвистики и лингвокультурологии.

Kirish. Til va madaniyat o'rtasidagi murakkab va uzviy bog'liqlikni o'rganishda konseptosfera nazariyasi muhim vosita hisoblanadi. Konseptosfera — bu muayyan mavzu yoki soha doirasidagi konseptlar majmuasi bo'lib, ular til orqali ifodalangan holda ma'lum bir tushunchaviy maydonni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, “ob-havo” konseptosferasi inson hayotida beqiyos o'rin tutgan tabiat hodisalarini ifodalovchi lingvistik birliklarning butunligini anglatadi. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar “ob-havo” mavzusini o'zida keng aks ettirib, til va madaniyat o'rtasidagi bog'lanishni chuqur anglash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyaning o'ziga xos iqlim sharoitlari, ayniqsa shamol va yomg'irning kundalik hayotdagi ta'siri, “ob-havo” mavzusining ingliz tilida ko'p va xilma-xil frazeologik ifodalanishiga sabab bo'lgan. Frazeologik birliklar nafaqat tabiat hodisalarini tasvirlaydi, balki ularning madaniy-kognitiv mazmunini ham ochib beradi, ya'ni til vositasida milliy madaniyatning qadriyatlari, insonlarning tabiatga bo'lgan munosabati, ijtimoiy xulq-atvori aks etadi. Shu bois, ingliz tilidagi “ob-havo” konseptosferasi frazeologik birliklar orqali tahlil qilinishi lingvistik, madaniy va kognitiv jihatdan dolzarb va qimmatli ilmiy masala hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda ingliz tilidagi asosiy ob-havo elementlariga oid frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, madaniy-kognitiv kontekstlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologizmlarning til manzarasidagi o'rni va ularning milliy madaniyatdagi aksini aniqlashga

harakat qilinadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, lingvokulturologiya va frazeologiya sohalarida yangi ilmiy yo‘nalishlar ochish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kutiladi.

Adabiyotlar tahlili. “Ob-havo” konseptini o‘rganishning dolzarbligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ob-havo fenomeni ingliz lingvomadaniyati uchun yuqori darajadagi sotsiomadaniy ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, bu mavzu doimiy ravishda tadqiqotchilar e‘tiborini jalb etib keladi. Tadqiqotchilar ushbu konseptning turli jihatlarini tahlil qilmoqdalar. Masalan, E.V. Suravikina o‘z ishlarida ob-havo hodisalariga oid murakkab nomlash birliklari, ob-havoning konseptualizatsiyasi va rus tili dialektlaridagi meteorologik leksikani ko‘rib chiqadi. K.L. Fyodorova esa meteorologik nomlar (meteonimlar) ishtirok etgan rus tilidagi frazeologizmlarning tarkibiy va semantik modellarini o‘rganadi. K.A. Malygina esa meteorologik leksikaning maqol va matallardagi tarjimasini tahlil qiladi. N.Yu. Perfilyeva o‘z tadqiqotlarida rus va ingliz tillarida “погода” va “weather” leksemalari ishtirokidagi idiomalarning qiyosiy tahlilini o‘tkazadi hamda “weather” leksemasining oltita tildagi ifoda shakllari orqali milliy madaniyatlarning o‘ziga xosliklarini solishtiradi. Moscow State University Press. M.V. Dombrovskaya esa “yomg‘ir” konseptini rus va fransuz tilidagi dunyo manzarasi komponenti sifatida batafsil o‘rganib, bu jarayonda leksikografik tahlil va assotsiativ eksperiment usullarini qo‘llaydi. V.P. Vasiliev ham “yomg‘ir” konseptiga e‘tibor qaratib, uning rus tilidagi obrazli realizatsiyalarini tahlil qiladi. O.S. Fisenko esa rus til ongida “momaqaldiroq” konseptini tadqiq etadi (2005). Mazkur maqola esa ingliz lingvomadaniyati doirasida “ob-havo” konsepti va uning tarkibiy qismlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlanmalar turkumiga kiradi.

Metodologiya. “Ob-havo” konseptini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda, chunki u faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun emas, balki kengroq auditoriya uchun ham qiziqarli bo‘lishi mumkin. Aholining ob-havo hodisalariga bo‘lgan qiziqishi ekologik muhitning holati, global isish va ekologik falokatlar bilan bog‘liq iqlim o‘zgarishlari tufayli ortib bormoqda. Bu holat esa, o‘z navbatida, ob-havo mavzusiga oid axborot maydonining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada biz “ob-havo” konseptining umumiy ko‘rinishini hamda uning ayrim tarkibiy qismlarini – “yomg‘ir” (RAIN), “qor” (SNOW), “shamol” (WIND), bo‘ron (STORM) va boshqalarni – ingliz tilidagi frazeologiya doirasida tahlil qilamiz. Tilning frazeologik fondi tadqiqot uchun boy materialni taqdim etadi. Tilning milliy xususiyatga ega bo‘lgan, barqaror va xalq donishmandligi, qadriyatlar tizimi hamda milliy tafakkur ifodasi mujassam bo‘lgan qatlamini o‘rganish millatning dunyo manzarasini anglashda muhim va zarur hisoblanadi. Frazeologik tizimda mustahkamlangan til obrazlari o‘z mohiyatiga ko‘ra chuqur milliy xarakterga ega, chunki ular “madaniy bilimning o‘ziga xos eksponentlari bo‘lib, til va madaniyat semantikasi o‘zaro ta’sirlashadigan makon” sifatida namoyon bo‘ladi.

E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov frazeologizmlarni (soʻzlar va til aforizmlari bilan bir qatorda) milliy madaniyat bilan bogʻliq holda koʻrib chiqib, ularni “madaniyat tashuvchilari” yoki “milliy-madaniy axborot manbalari” deb taʼriflaydilar; bu birliklar xorijliklarga muayyan mamlakatning voqeligini anglash imkonini beradi.

Bizning tadqiqotimizda, asosan, tilshunoslikdagi yozma shaklda mustahkamlangan til ongini oʻrganishning xos usuli boʻlgan leksikografik manbalarga tayanamiz. Tadqiqot materiali sifatida tarkibida “weather” leksemasi mavjud boʻlgan 8 ta frazeologik birlik (FB) hamda ushbu konsept doirasidagi ob-havo hodisalarining semantikasini oʻz ichiga olgan 108 ta frazeologik birlik tanlab olindi, jami 116 ta FB tahlil qilindi. Tahlil davomida biz “WEATHER” konseptini oʻz ichiga olgan frazeologizmlarning maʼnosini ochib beramiz, ularning qoʻllanilishiga oid misollar keltiramiz hamda ular tarkibida mujassam boʻlgan kognitiv xususiyatlarni ajratib koʻrsatamiz.

Natijalar qismi. “Weather” konseptini oʻz ichiga olgan frazeologik birliklarning aksariyati salbiy konnotatsiyaga ega. Ob-havo inson boʻysunishga majbur boʻlgan tashqi shart-sharoit sifatida tasvirlanadi. Ob-havo inson salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi bosim sifatida idrok etilib, bu holat to be under the weather idiomatik ifodasida aks etadi - ‘oʻzini yomon his qilmoq, betob boʻlmoq’. Ingliz tilining Amerika (AE) variantida esa esa ushbu iboraning asosiy maʼnosidan tashqari, aniqroq holat tasvirlanadi: drunk, intoxicated - ‘mast boʻlmoq, hangover-ichkilikdan keyingi bosh ogʻriqdan aziyat chekmoq’ maʼnosini beradi.

“Fair-weather friend” iborasi, odatda, inson faqat ishlaringiz yaxshi ketayotganida, siz muvaffaqiyatga erishganingizda yoningizda boʻladigan kishiga nisbatan ishlatiladi — yaʼni, faqat “moʻl-koʻlchilikdagi, yaxshi ob-havo” davridagi doʻst. “To make heavy weather of something” “Pashshadan fil yasamoq” idiomasi esa ‘biror narsani qiyin deb bilmoq, ortiqcha murakkablashtirmoq, oddiy narsani kattalashtirib koʻrsatmoq’ maʼnolarida ishlatiladi. Ob-havo odatda insonlarning rejalari va xatti-harakatlarida muhim omil boʻlib, ayrim hollarda biror ishni qilish mumkinligini “hal qiladi”. Bu xususiyat weather permitting (‘agar ob-havo imkon bersa ; ‘agar yomgʻir yogʻmasa’) - ‘agar ob-havo ruxsat etsa’, ‘agar yomgʻirli boʻlmasa’ kabi ifodalarda oʻz aksini topgan.

“To hit rough weather” “Boshiga qora kun tushmoq”, “Chigallikka duch kelmoq” iborasi odatda insonlar muammolarga yoki qiyinchiliklarga duch kelgan vaziyatlarda ishlatiladi. Bu ibora odamlar ongida muammolar va yomon ob-havo oʻrtasida oʻxshashlik mavjudligini koʻrsatadi. “Rough” sifatoshining ishlatilishi ifodaga salbiy konnotatsiya beradi. Juda sovuq ob-havo haqida gap ketganda esa “brass monkey weather” yoki “brass monkeys” - Suyakni qotiradigan sovuq, Qahraton sovuq, Jon qotiradigan sovuq, Suyakka oʻtadigan sovuq kabi idiomatik iboralar ishlatiladi.

Biroq yoqimsiz, yomg'irli ob-havoning ham ijobiy tomoni bo'lishi mumkin. Masalan, lovely weather for ducks yoki fine weather for ducks iboralari so'zma-so'z "o'rdaklar uchun ajoyib ob-havo" degan ma'noni beradi va ko'pincha salomlashish yoki hazil aralash fikr bildirish shaklida qo'llaniladi: – What a lot of rain! – Yeah. Lovely weather for ducks. (– Qarang, qanday kuchli yomg'ir! – Ha, o'rdaklar uchun ajoyib ob-havo-ku!).

Britaniya ob-havosi ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan deb ataladi va bu ta'rif o'z tasdig'ini topgan: bir xil ob-havo sharoitlari qisqa vaqt ichida butunlay teskari holatga o'zgarishi mumkin. BBC Weather milliy ob-havo saytida quyidagicha yozilgan: "Bizning ko'pchiligimiz uchun britan ob-havosi haqida gaplashish, ko'proq esa shikoyat qilish milliy mashg'ulotga aylangan. Har qanday suhbat aynan ob-havo bilan boshlanishi bejiz emas. Bunga sabab – bizning ob-havomiz nihoyatda o'zgaruvchan".

Antropolog K. Foks ham shunga o'xshash fikr bildiradi. Uning ta'kidlashicha, inglizlar ob-havo haqida shunchaki noodatiy bo'lgani uchun emas, balki uning o'zgaruvchan va barqaror emasligi sababli ko'p suhbat quradilar.

Shuningdek, "weather eye" iborasi va "to keep a weather eye out/open" ifodasi shuni anglatadiki, ob-havoni diqqat bilan kuzatish kerak, chunki u tez-tez o'zgarib turadi. Ob-havoning o'zgaruvchanligi "April weather" idiomasi orqali ham ifodalanadi — bu ibora "goho yomg'ir, goho quyosh; goho kulgi, goho ko'z yosh" degan ma'noni anglatib, tez-tez almashib turadigan ob-havo yoki kayfiyatni bildiradi. Yaxshi ob-havo esa King's (Queen's) weather – ya'ni "podshoh(yoqi malika) uchun (buyurtma ob-havo) ob-havosi" deb ataladi. Bu ibora ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, inglizlarning milliy ongida ijobiy obraz sifatida aks etadi.

Ob-havo konseptosferasi turli komponentlardan – RAIN (yomg'ir), SNOW (qor), STORM (dovul), WIND (shamol) kabi ob-havo hodisalaridan iborat. Keling, ularning ingliz tilining frazeologik fondida qanday ifodalanganini ko'rib chiqamiz.

"Rain" Yomg'ir eng keng tarqalgan ob-havo hodisasi bo'lib, ingliz tilidagi dunyo manzarasining eng muhim konseptlaridan biri hisoblanadi. Angliyadagi iqlim va ob-havo sharoitlari ingliz lingvomadaniyatida yomg'irning turlari va ko'rinishlarini obyektivlashtiruvchi ko'plab til birliklarining, xususan, frazeologik birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. "Rain" konseptining ingliz tilidagi frazeologiya va paremiyologiyada ifodalanishiga oid batafsil tahlil ilgari muallif tomonidan keltirilgan edi. "Rain" konseptini o'z ichiga olgan frazeologik birliklarning sezilarli qismi kuchli yomg'irni ifodalash uchun xizmat qiladi: to bucket down; to rain buckets; to rain cats and dogs; the heavens opened — bu iboralar o'zbek tiliga "chelakdan quyayotgandek yomg'ir yog'moqda" tarzida tarjima qilinadi. Shuningdek, ushbu konsept salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgan frazeologik birliklar guruhini ham o'z ichiga oladi: to rain on somebody's parade – 'biror kishining rejalarini buzmoq, to'siq bo'lmoq'; to take a rain check –

‘biror taklifni hozir qabul qilmaslik, keyinroq qabul qilish uchun qoldirmoq’; to save something for a rainy day – ‘og‘ir kunlar uchun jamg‘arma qilmoq’; it never rains but it pours – ‘kulfatlar yolg‘iz kelmaydi’, ya’ni ‘balo ketma-ket keladi’ ma’nolarini bildiradi.

Yomg‘ir, asosan, rejalarga xalaqit beruvchi yomon ob-havo sharoiti sifatida tasvirlanadi; bu og‘ir voqea bo‘lib, unga oldindan tayyor bo‘lish ma’qul: “into each life some rain must fall” – ‘har bir inson hayotida qiyinchiliklar bo‘ladi’; “it never rains but it pours” – ‘balo ketma-ket keladi’ yoki ‘kulfat yolg‘iz kelmaydi’; “when it rains, it rains on all alike” – ‘yomg‘ir yog‘sa, hammaga baravar yog‘adi’ ya’ni ‘musibat hammani birdek ayamaydi’. Shunga qaramay, yomg‘irdan keyin har doim yaxshi ob-havo keladi: “after rain comes fair weather” – ‘noqulayliklardan so‘ng yaxshi kunlar keladi’ yoki ‘har bir yomg‘irdan keyin quyosh chiqadi’.

Ingliz tilida “Snow” konseptini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar unchalik ko‘p emas (jami frazeologik birliklarning atigi 5 foizini tashkil etadi). Bu holat Buyuk Britaniyaning orol hududda joylashganligi va uning qishloq iqlimida sovuqlik, bo‘ron yoki qorning kamligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

“Snow” leksemasini o‘z ichiga olgan quyidagi frazeologik birliklar aniqlangan: a snowball’s chance in hell – so‘zma-so‘z: “do‘zaxda qor to‘pining imkoniyati”; norasmiy kontekstdagi ibora bo‘lib, “hech qanday imkoniyat yo‘q”, “ummuman iloji yo‘q” degan ma’noni bildiradi, snowed under – ish bilan “qor bosgandek” to‘lib ketgan holatni bildiradi; ya’ni, “ishning ko‘pligidan ko‘zini ocholmayotgan”; the snows of yesteryear – “o‘tgan yilgi qor” degan so‘zma-so‘z tarjimada bo‘lib, o‘tgan, qaytmaydigan zamonlarni anglatadi (Bir vaqtlar bo‘lgan, endi yo‘qotilgan go‘zallik), snow job – asosan ingliz tilining amerika variantida (AE) ishlatiladigan, norasmiy ibora; “aldov, firibgarlik, chiroyli gap bilan chalg‘itish” ma’nolarini bildiradi; to roast snow in a furnace – “pechda qorni qovurmoq”; ya’ni, foydasiz, minnatdorliksiz, samarasiz ish bilan shug‘ullanish; to grow like a rolling snowball – “dumalab borayotgan qor to‘pidek o‘smoq”, ya’ni tez va izchil o‘sishni ifodalovchi ibora.

Qor bilan bog‘liq qiyosiy ifodalar (komparativlar): Qorning jismoniy xususiyatlariga asoslangan qator taqqoslovchi iboralar mavjud:

1. as clean as snow – qor kabi toza;
2. as cold as snow – qor kabi sovuq;
3. as innocent as (the driven) snow – (yangi tushgan) qor kabi beg‘ubor;
4. as light as snow – qor kabi yengil;
5. as pale as snow – qor kabi oqarib ketgan;
6. as pure as the driven snow – (tushgan) qor kabi pokiza;
7. as white as snow – qor kabi oppoq;
8. to melt like snow – qor kabi erib ketmoq;

9. to vanish like snow – qor kabi ko‘zdan yo‘qolmoq.

Ingliz tili frazeologik tizimida “Storm” konsepti kuchli, qarshilik qilish mushkul bo‘lgan tabiiy hodisa sifatida, shuningdek, salbiy tusdagi iqlim holati, favqulodda faollik va kuch bilan bog‘liq harakat, yoki bardosh berish zarur bo‘lgan murakkab davrni ifodalash uchun ishlatiladi: to weather the storm, to ride out a storm - “bo‘ronga bardosh bermoq, og‘ir vaqtlarni boshdan kechirmoq”; the calm before the storm, the lull before the storm - “bo‘ron oldidan sukunat”; ya‘ni: muammo, nizolar boshlanishidan avvalgi g‘ayrioddiy sokinlik holati. any port in a storm - “bo‘ron paytida har qanday port panoh” (ya‘ni, og‘ir vaziyatda mavjud har qanday imkoniyatga yopishish kerak); a storm in a teacup – so‘zma-so‘z: “choynakdagi bo‘ron”, ya‘ni: arziyas voqea ortidan haddan tashqari shov-shuv, hissiy portlash. Qiziqarli tomoni shundaki, bu ibora AE ingliz tilida a tempest in a teapot – “choynakdagi dovul” shaklida ishlatiladi; to be at the centre of a storm; to be in the eye of the storm - “hodisalar markazida, voqealar girdobida bo‘lmoq”; storm is brewing - “bo‘ron yaqinlashmoqda; mojaroli holat yuzaga kelmoqda” tarzida. Any port in a storm - “bo‘ron paytida har qanday port panoh” (ya‘ni, og‘ir vaziyatda mavjud har qanday imkoniyatga yopishish kerak); a storm in a teacup – so‘zma-so‘z: “choynakdagi bo‘ron”, ya‘ni: arziyas voqea ortidan haddan tashqari shov-shuv, hissiy portlash. Qiziqarli tomoni shundaki, bu ibora AE ingliz tilida a tempest in a teapot – “choynakdagi dovul” shaklida ishlatiladi; to be at the centre of a storm; to be in the eye of the storm – “hodisalar markazida, voqealar girdobida bo‘lmoq”; storm is brewing - “bo‘ron yaqinlashmoqda; mojaroli holat yuzaga kelmoqda”; stormy relationship – “tinch bo‘lmagan munosabatlar, tez-tez janjal va ziddiyatlarga boy bo‘lgan aloqalar”; after a storm comes the calm - “bo‘rondan keyin sokinlik keladi; musibat ortidan yengillik bo‘ladi”; vows made in storms are forgotten in calms - “bo‘ron vaqtida berilgan qasamyodlar, sokinlikda unutiladi”; ya‘ni: hissiy holatda qilingan va‘dalar doimiy emas; oaks may fall when reeds withstand the storm - “bo‘ron eman daraxtlarini yiqitsa-da, qamishlarga zarar qilmaydi”; ya‘ni: ba‘zida kuch emas, moslashuvchanlik muhimroq bo‘ladi; to dance / sing / cook etc. up a storm - “nihoyatda kuchli, zavq bilan bajarmoq (raqsga tushmoq, kuylamoq, ovqat pishirmoq va h.k.)”; to take somewhere by storm - “katta muvaffaqiyatga erishmoq, ommaviy e‘tibor va g‘alaba qozonmoq”.

Zamonaviy texnologiyalar jarayonida ham frazeologizatsiya faol kuzatilmoqda. Masalan, Twitter storm - bu “biror mavzu yoki shaxs haqida birdaniga juda ko‘p sonli xabarlarining paydo bo‘lishi” degan ma‘noni bildiradi (ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladigan muhokamalar to‘lqini). Qiziq jihatlardan biri shundaki, ingliz frazeologiyasida dengizchilik an‘analari va urf-odatlari alohida o‘rin tutadi. Bu holat Buyuk Britaniya tarixida dengiz transporti muhim iqtisodiy va madaniy rol o‘ynaganligi bilan izohlanadi. Bunday frazeologizmlarda ko‘pincha shamol va bo‘ron hodisalari asosiy obraz sifatida ishtirok etadi, chunki ular dengizchilar uchun eng muhim tabiiy hodisalardan hisoblangan.

Quyidagi frazeologik birliklar bunga misol bo'la oladi: to take the wind out of somebody's sails – "birovning ishtiyoqini so'ndirmoq, ruhiyatini tushirmoq"; to sail close to the wind – "qaltis yo'l tutmoq, xavfli ish bilan shug'ullanmoq"; hoist your sail when the wind is fair – "qulay shamolda yelkaningni yozmoq; imkoniyatdan foydalamoq"; the calm before the storm – "bo'rondan avvalgi sokinlik"; ya'ni muammo oldidan vaqtinchalik tinchlik; any port in a storm – (yana) "qiyin paytda har qanday imkoniyat foydalidir"; whence (where, how) the wind blow – "shamol qayerdan esayotganini bilmoq", ya'ni: vaziyatni tushunmoq, qayerdan xavf yoki foyda kelishini anglamoq; between wind and water – so'zma-so'z: "shamol va suv o'rtasida", ya'ni: eng zaif, himoyasiz joy; in the wind's eye – "to'g'ridan-to'g'ri shamolga qarshi"; ya'ni: qiyin sharoitda harakat qilmoq; to cast an anchor to windward – "oldindan choralar ko'rmoq, ehtiyotkorlik bilan yondashmoq".

"Wind" (Shamol). konsepti ingliz tilidagi frazeologik birliklar ichida eng ko'p uchraydiganlaridan biri bo'lib, umumiy miqdorning 33 foizini tashkil etadi. Bu holat Buyuk Britaniyaning orol iqlimi sharoitida shamol va havo massalarining harakati muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi. Shamol ingliz madaniy ongida tezkorlik, beqarorlik, noaniqlik, o'zgaruvchanlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Shamolning xususiyatlarini oldindan bilish yoki unga ta'sir o'tkazishning imkoni yo'qligi bu hodisaga oid asosiy semantik komponentlar sifatida shakllangan. Ingliz frazeologiyasida shamol quyidagi ma'nolarda namoyon bo'ladi: Yo'nalish beruvchi kuch, jasorat, qat'iyat va ruhiy kuch sifatida: to take the wind out of somebody's sails – kimningdir rejalarini buzmoq, uni ruhiy tushkunlikka solmoq (so'zma-so'z: biror kishining yelkanlaridan shamolni olib qo'yimoq); Yo'nalishni bildiruvchi belgili hodisa sifatida: to see which way the wind is blowing – vaziyatga qarab harakat qilmoq, avval shamol qayerdan esayotganini bilmoq, qaror qabul qilishda shoshilmaslik; Yangiliklar, mish-mishlar yoki ma'lumotlar tashuvchisi sifatida: to get/have wind of something – biror narsa haqida tasodifan eshitmoq, xabar topmoq; Beqarorlik, noaniqlik, efemerlik ramzi sifatida: words are but wind – so'zlar shamolday (ya'ni befoyda, o'tkinchi); Yo'nalish beruvchi kuch, jasorat, qat'iyat va ruhiy kuch sifatida: to take the wind out of somebody's sails – kimningdir rejalarini buzmoq, uni ruhiy tushkunlikka solmoq (so'zma-so'z: biror kishining yelkanlaridan shamolni olib qo'yimoq); Yo'nalishni bildiruvchi belgili hodisa sifatida: to see which way the wind is blowing – vaziyatga qarab harakat qilmoq, avval shamol qayerdan esayotganini bilmoq, qaror qabul qilishda shoshilmaslik; Yangiliklar, mish-mishlar yoki ma'lumotlar tashuvchisi sifatida: to get/have wind of something – biror narsa haqida tasodifan eshitmoq, xabar topmoq; Beqarorlik, noaniqlik, efemerlik ramzi sifatida: words are but wind – so'zlar shamolday (ya'ni befoyda, o'tkinchi); the wind can't be caught in a net – shamolni to'r bilan ushlab bo'lmaydi (ya'ni bekor ish); to scatter to the (four) winds – to'rt tarafga tarqalmoq, butunlay yo'qolmoq; to blow in the wind – havoda osilib turmoq, noaniq holatda


bo'lmoq; to throw caution / to cast to the wind(s) – ehtiyot choralarini e'tiborsiz qoldirmoq, xavfga bosh urmoq; Xavf belgisi sifatida: to sail close to the wind – xavfli ish bilan shug'ullanmoq, xavf yoqasida harakat qilmoq.

Noqulay ob-havo sharoiti, murakkab vaziyat: wind and weather – “noqulay ob-havo”, keng ma'noda – og'ir, noqulay holat; to bend with the wind – “vaziyatga moslashmoq, sharoitga qarab harakat qilmoq”. Shamolning ahamiyati insonning asosiy fiziologik jarayoni bo'lgan nafas olish bilan tenglashtirilgan: to knock the wind out of somebody – kimnidir hushidan ketkazmoq, kuchdan qoldirmoq (so'zma-so'z: kimningdir nafasini uzmoq); second wind – “ikkinchi nafas”, kuch-quvvatning qayta tiklanishi; bad (short) wind – “nafas qisishi”, “bo'g'ilish holati”; in wind and limb – “butun a'zolari joyida, sog'-salomat, yaxshi holatda bo'lish”. Ba'zi iboralar esa xalq tajribasi va donishmandligini yaqqol ifodalaydi: Sow the wind and reap the whirlwind – “shamol sepgan bo'ron o'radi”, ya'ni: ehtiyotsizlik oqibatida o'zing aziyat chekasiz.

Muhokama. Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida “OB-HAVO” konseptini obyektivlashtiruvchi frazeologik birliklar juda ko'p. Bu holat ob-havo konseptining ingliz milliy til manzarasida o'ziga xos va muhim o'rin egallashini isbotlaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar nafaqat tilning obrazli qatlamini, balki milliy madaniyatga xos dunyoqarash va qadriyat tizimini ham aks ettiradi. Ayniqsa, “Weather” (ob-havo) konseptini ifodalovchi frazeologizmlarning aksariyati undagi negativ tasavvurni yoritadi. Har bir frazeologik birlik shu konsept tarkibida mavjud bo'lgan ob-havo hodisasining kognitiv xususiyatlarini boyitib boradi. Olingan material tahliliga ko'ra, eng ko'p uchraydigan mintaqqa bu shamol (wind) konsepti bo'lib chiqdi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil davomida quyidagi miqdordagi frazeologik birliklar aniqlangan: wind (shamol) – 38 ta, rain (yomg'ir) – 17 ta, storm (bo'ron) – 17 ta, cloud (bulut) – 10 ta, “Weather” (Ob-havo) konseptosferasini tashkil etuvchi komponentlar quyidagi diagrammada foiz nisbatida aniq ko'rinishda tasvirlangan (1-rasm).

Ingliz tilida ob-havo konseptosferasining frazeologik taqsimoti



Xulosa. Ingliz tilidagi “weather” konseptosferasi frazeologik birliklar orqali boy semantik qatlamda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ob-havo hodisalari ingliz madaniy ongida nafaqat tabiiy jarayon sifatida, balki inson hayoti, ruhiyati va ijtimoiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq ramz sifatida talqin qilinadi. Frazeologik birliklarning aksariyati salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, ob-havo inson irodasiga bo‘ysunmaydigan tashqi kuch, qiyinchilik va muammolar manbai sifatida tasvirlanadi (to be under the weather, to hit rough weather, storm is brewing va boshqalar).

Shu bilan birga, ayrim birliklar ijobiy ma‘no kasb etadi: “lovely weather for ducks”, “after rain comes fair weather”, “King’s weather” kabi idiomlar hayotdagi quvonchli, yengillik keltiruvchi holatlar bilan bog‘liq. Bu esa ingliz madaniyatida ob-havoning ikki qutbli- ham salbiy, ham ijobiy- semantik maydonga ega ekanini ko‘rsatadi.

Frazeologik birliklarning tematik taqsimoti shuni ko‘rsatadiki:

1.Wind (shamol) konsepti eng keng tarqalgan bo‘lib, frazeologik birliklarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Shamol tezkorlik, beqarorlik va o‘zgaruvchanlik ramzi sifatida qaraladi.

2.Rain (yomg‘ir) ingliz lingvomadaniyatida muhim konsept bo‘lib, iqlimiy sharoitlar ta‘sirida ko‘plab idiomatik birliklarda rejalarga xalaqit beruvchi kuch yoki sinov ramzi sifatida ifodalanadi.

3. Storm (dovul) kuchli qarshilik, xavf va to'sqinliklarni ifodalovchi obraz sifatida faol qo'llanadi, biroq "after a storm comes the calm" kabi iboralar sinov ortidan yengillik kelishini ham bildiradi.

4. Snow (qor) frazeologik tizimda kamroq o'rin egallasa-da, soflilik, befoydalik yoki umidsizlikni anglatishda qo'llanadi.

Umuman olganda, ingliz tilidagi ob-havo konseptosferasi frazeologiyasi iqlimiy sharoitlar, tarixiy-madaniy an'analar, milliy xarakter va ijtimoiy tajriba bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu birliklar ingliz xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari hamda tabiat bilan munosabatini lingvokulturologik nuqtayi nazardan yorqin aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Suravikina, E. V. (2010). Rus tilida meteorologik hodisalarning murakkab nomlari. Moscow State University Press.
2. Fyodorova, K. L. (2011). Rus tilida meteonimlar bilan bog'liq frazeologizmlar: Strukturaviy tahlil. Moscow State University Press. Fyodorova, K. L. (2013). Meteonim frazeologizmlarning semantik tipologiyasi. Moscow State University Press. Fyodorova, K. L. (2015). Meteonim frazeologizmlarning lingvokulturologik jihati. Moscow State University Press.
3. Malygina, K. A. (2009). Maqol va matallarda meteorologik leksika: Tarjima muammolari. Moscow State University Press.
4. Perfilyeva, N. Yu. (2007). "Pogoda" va "weather" leksemalari asosidagi idiomlarning qiyosiy tahlili. Moscow State University Press. Perfilyeva, N. Yu. (2008). Turli tillarda "weather" leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari. Moscow State University Press.
5. Dombrovskaya, M. V. (2004). "Do'jd'" konseptining rus va fransuz tillaridagi leksikografik tahlili. Moscow State University Press. Dombrovskaya, M. V. (2005). Meteorologik leksikani tadqiq etishda assotsiativ eksperiment. Moscow State University Press. Dombrovskaya, M. V. (2006). Rus va fransuz tillarida "do'jd'" konseptining til manzarasidagi ifodalanishi. Moscow State University Press.
6. Vasiliev, V. P. (2007). Meteorologik obrazlarning lingvistik tahlili. Moscow State University Press. Vasiliev, V. P. (2012). Rus til ongida "do'jd'" konsepti. Moscow State University Press. Vasiliev, V. P. (2014). Meteorologik obrazlarni ifodalashda frazeologik vositalar. Moscow State University Press.
7. Fisenko, O. S. (2005). Rus til manzarasida "grom" konsepti. Saint Petersburg State University Press.
8. Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. (1990). Rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda lingvostranovedeniye. Rus tili nashriyoti.
9. Summers, D. (2007). Longman dictionary of contemporary English (4-nashr). Longman.

10. Hornby, A. S. (2005). Oxford advanced learner's dictionary (7-nashr). Oxford University Press.
11. BBC. (n.d.). Buyuk Britaniya ob-havosini tushunish. BBC Weather. http://www.bbc.co.uk/weather/features/understanding/britain_01.shtml
12. Fox, K. (2008). Inglizlar kuzatuv ostida: Ingliz xulqining yashirin qoidalari. Nicholas Brealey Publishing.